070:004.738.5(575.1)

MATBUOT INTERNET TIZIMIDA: ZAMONAVIY JARAYON VA TRANSFORMATSIYA

N.A. Musayeva

Maqolada matbuotning internet muhitidagi mazmuniy va funksional transformatsiyasi tahlil qilingan. Internet jurnalistikasida an'anaviy janrlarning blog-esse, longread va videoreportaj kabi yangi shakllarga aylanishi hamda interaktivlik, multimediaviylik va gipermatnlilik tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli media, raqamli jurnalistika, multimediaviylik, interaktivlik, gipermatn, blog-esse, longread, mediatransformatsiya.*

В статье анализируется трансформация печатных СМИ в интернет-среде. Рассматриваются изменения традиционных журналистских жанров, появление блогов, лонгридов и видеорепортажей, а также основные принципы интернет-журналистики: интерактивность, мультимедийность и гипертекстуальность.

Ключевые слова: *интернет-СМИ, цифровая журналистика, мультимедийность, интерактивность, гипертекст, блог-эссе, лонгрид, медиа трансформация*.

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida global axborot makoni tubdan o'zgarib bormoqda. Internetning keng tarqalishi va raqamli platformalarning ommalashuvi an'anaviy matbuot tizimining funksional va tarkibiy jihatdan transformatsiyaga uchrashiga sabab bo'ldi. Gazeta va jurnallar tarixan bosma shaklda faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ular raqamli muhitga moslashib, onlayn nashrlar, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham keng auditoriyaga axborot yetkazmoqda. Muxtor Xudoyqulovning ta'kidlashicha: "Internet – ommaviy axborot vositalarining alohida, elektron texnikaga asoslangan bir turi bo'lib, u turli mavzulardagi informatsiyalarni yig'ish va ularni kompyuterlar tarmog'i orqali tarqatish bilan ish ko'radi. Garchi uni bevosita matbuot – ya'ni bosma so'z vositasi deb bo'lmasa-da, u ommaviy axborot vositasi sifatida matbuot qonunlariga asoslanib ish ko'radi" [1. B.116].

Mazkur jarayon jurnalistika sohasida yangi kommunikativ modelning shakllanishiga olib keldi. An'anaviy bir yo'nalishli axborot uzatish tizimi o'rnini interaktiv, tezkor va ko'p platformali media tizimi egallamoqda. Natijada auditoriya nafaqat axborot iste'molchisi, balki uning faol ishtirokchisiga ham aylanmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, internet jurnalistikasi axborotni tezkor, interaktiv va multimediaviy shaklda yetkazish imkonini yaratadi [2. B.103].

Shu bilan birga internet jurnalistikasining rivojlanishi axborotning tez tarqalishi, multimediaviy kontentning kengayishi hamda gipermatnli tuzilmalarning shakllanishi kabi yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. Biroq bu jarayon bilan birga axborot ishonchliligi, dezinformatsiya va mediasavodxonlik kabi muammolar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli matbuotning internet tizimidagi transformatsiyasini o'rganish bugungi kun jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu maqola aynan shu jarayonning zamonaviy xususiyatlari va o'zgarishlarini tahlil qilishga qaratilgan.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotda matbuotning internet tizimidagi mazmuniy transformatsiyasini o'rganish uchun mahalliy va xorijiy olimlarning jurnalistika, raqamli media va internet kommunikatsiyalariga oid ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari hamda elektron manbalardan foydalanildi. Xususan, Nargiz Qosimova [2], Marshall Makluhan [3], Lev Manovich [4] va Henri Jenkinsning [5] ilmiy qarashlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlili va ku-

zatish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy va raqamli ommaviy axborot vositalari (OAV)ning o'ziga xos jihatlari solishtirildi. Kontent tahlili asosida internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi media materiallari o'rganildi, kuzatish metodi orqali esa raqamli media muhitidagi axborot tarqatish jarayonlari tahlil qilindi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Matbuot jamiyat axborot tizimida muhim o'rin egallovchi ijtimoiy institut bo'lib, u tarixan bosma nashrlar – gazeta va jurnallar ko'rinishida shakllangan. An'anaviy jurnalistika nazariyasida matbuotning asosiy vazifasi axborotni yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishdan iborat deb qaraladi. Ushbu tizim uzoq vaqt davomida bir yo'nalishli kommunikatsiya modeli asosida faoliyat yuritgan, ya'ni axborot muallifdan auditoriyaga uzatilgan, qayta aloqa esa cheklangan bo'lgan.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida matbuot tizimi yangi bosqichga o'tdi. Internetning global kommunikatsiya vositasi sifatida shakllanishi matbuotning funksional va strukturaviy o'zgarishiga olib keldi. Natijada an'anaviy matbuot internet muhitiga integratsiyalashdi va "onlayn matbuot" yoki "raqamli jurnalistika" deb ataluvchi yangi tizim shakllandi.

Nazariy jihatdan raqamli media bir necha asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, tezkorlik prinsipi ustuvor ahamiyat kasb etadi, ya'ni axborot real vaqt rejimida uzatiladi va doimiy yangilanib boradi. Ikkinchidan, interaktivlik tamoyili asosida auditoriya nafaqat axborot iste'molchisi, balki kommunikativ jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Uchinchidan, multimediaviylik matn, audio, video va grafik elementlarning integratsiyasini ta'minlaydi. To'rtinchidan, gipermatnlilik axborotning tarmoqlangan tuzilmasini yaratib, foydalanuvchiga qo'shimcha manbalarga erkin o'tish imkonini beradi.

Ushbu xususiyatlar matbuotning mazmuniy transformatsiyasiga olib keldi. An'anaviy jurnalistik janrlar, jumladan, maqola, reportaj va ocherk internet muhitida yangi shakllarga transformatsiyalashdi. Xususan, blog-esse, longread, videoreportaj va multimedia hikoya janrlari shakllandi. Bu jarayon, ya'ni turli janrlarning bir-biriga qo'shilib yangi gibrid shakllarni hosil qilishi ilmiy adabiyotlarda "janrlar konvergensiyasi" deb ataladi,

Nazariy yondashuvlar doirasida matbuot va internet munosabati bir nechta ilmiy konsepsiyalar asosida izohlanadi. Marshall Makluhan ilgari surgan "media – xabarning o'zidir" ("medium is the message") g'oyasiga ko'ra, axborot mazmuni uni yetkazuvchi vosita bilan uzviy bog'liq bo'lib, internetning paydo bo'lishi axborotning o'z tabiatini ham o'zgartirgan [3. B. 7–21]. Lev Manovich raqamli media nazariyasida internet matnlarini modulli, interaktiv va avtomatlashtiriladigan tizim sifatida tahlil qiladi [4. B. 27]. Henri Jenkins esa "konvergentsiya madaniyati" tushunchasi orqali an'anaviy va raqamli medianing o'zaro integratsiyasini asoslab beradi [5. B. 24].

Shu asosda aytish mumkinki, matbuotning internet muhitiga o'tishi oddiy texnik yangilanish emas, balki kommunikatsiya paradigmasining tubdan o'zgarishidir. Bu jarayon natijasida matbuot bir yo'nalishli axborot uzatish tizimidan ko'p yo'nalishli, interaktiv va multimediaviy kommunikativ tizimga aylandi. Mazkur transformatsiya nafaqat jurnalistika nazariyasini, balki ijtimoiy axborot almashinuvi madaniyatini ham sezilarli darajada o'zgartirdi.

Kelgusida internet OAVning yanada rivojlanishi sun'iy intellekt, ma'lumotlar jurnalistikasi (ingl. "data journalism") va avtomatlashtirilgan kontent yaratish texnologiyalari bilan bog'liq holda davom etishi kutilmoqda. Bu esa matbuotning mazmuniy va funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Raqamli medianing asosiy ijtimoiy funksiyalaridan biri axborot berish funksiyasi hisoblanadi. Ushbu funksiya jamiyat a'zolarini mamlakat va dunyoda sodir bo'layotgan voqealar haqida tezkor va uzluksiz xabardor qilishni nazarda tutadi. An'anaviy matbuotda axborot davriy ravishda yetkazilgan bo'lsa, internet OAVda bu jarayon real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu esa axborot iste'molining tezligi va hajmini keskin oshiradi.

Ikkinchi muhim funksiya – jamoatchilik fikrini shakllantirish funksiyasidir [6. B. 45]. Raqamli media turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalar yuzasidan keng muhokama maydonini yaratadi. Auditoriya izohlar, reaksiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi faol ishtirok orqali muayyan hodisaga nisbatan jamoaviy munosabatni shakllantiradi. Shu tariqa raqamli media jamiyatdagi fikrlar plyuralizmini ta'minlovchi asosiy platformalardan biriga aylanadi.

Uchinchi ijtimoiy funksiya – nazorat (monitoring) funksiyasi matbuotning internet muhitidagi eng muhim vazifalaridan biri sifatida shakllandi. An'anaviy matbuotda bu funksiya asosan tahririy materiallar va tahliliy maqolalar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, raqamli muhitda u bevosita fuqarolar ishtirokiga asoslanadi. Internet OAV orqali fuqarolar davlat or-

ganlari, mahalliy boshqaruv tizimlari va turli ijtimoiy institutlar faoliyatini doimiy kuzatish, muammolarni ochiq ko‘tarish va tezkor jamoatchilik fikrini shakllantirish imkoniga ega bo‘lmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan muammolar tez fursatda keng jamoatchilik muhokamasiga chiqib, hatto rasmiy javoblar va qarorlar qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Z.M.Ibragimova jamoatchilik nazoratining ijtimoiy mohiyatini ochib berar ekan, “jamoatchilik nazorati shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi demokratik mexanizm” ekanligini ta’kidlaydi [7. B. 47].

To‘rtinchidan, ijtimoiylashtirish funksiyasi raqamli matbuotning eng sezilarli ta’sir yo‘nalishlaridan biridir. Matbuot internet muhitiga o‘tishi bilan axborot iste’moli faqat yangilik olish bilan cheklanmay, shaxsning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Raqamli platformalarda tarqatiladigan yangiliklar, tahliliy materiallar, bloglar va multimedia kontentlar insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi uchun internet OAV ijtimoiylashuv jarayonining asosiy manbalaridan biriga aylangan. Bu jarayon jamiyatda fikrlar xilmaxilligini oshiradi, biroq shu bilan birga axborot ta’sirining kuchayishi orqali ijtimoiy stereotiplar va mediaga bog‘liqlikni ham yuzaga keltirishi mumkin [8. B. 17–40].

Beshinchi – ta’limiy-ma’rifiy funksiya esa raqamli matbuotning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Internet OAV faqat yangiliklarni yetkazish bilan cheklanmay, balki jamiyatning bilim darajasini oshirishga xizmat qiluvchi platformaga aylangan. Onlayn maqolalar, ilmiy-ommabop videolar, ekspert intervyulari va infografikalar orqali murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy jarayonlar keng auditoriyaga tushunarli shaklda yetkazilmoqda. Bu esa an’anaviy ta’lim tizimini to‘ldiruvchi “raqamli bilim muhiti”ni shakllantirmoqda. Shuningdek, multimediaviy vositalar – video, audio, grafik va interaktiv elementlar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Raqamli medianing yana bir muhim jihati uning rekreativ (dam olish va ko‘ngilochar) funksiyasidir. Zamonaviy media platformalarda axborot bilan bir qatorda ko‘ngilochar kontent ham keng tarqalgan bo‘lib, bu auditoriyaning media iste’molini diversifikatsiya qiladi. Bu funksiyaning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat.

Multimediaviy kontent iste’moli. “YouTube”, “TikTok”, “Instagram” kabi platformalar orqali foydalanuvchilar qisqa va uzun metrajli videolar, filmlar va seriallarni istalgan vaqtda tomosha qilishlari mumkin.

Interaktiv o‘yinlar (“gaming”). Raqamli muhit o‘yin sanoatini yangi bosqichga olib chiqdi. Kompyuter, konsol va mobil o‘yinlar, shuningdek, kiberatletika (“esports”) millionlab insonlar uchun asosiy dam olish vositasiga aylangan.

Musiqa va podkastlar. “Spotify”, “Apple Music”, “SoundCloud” kabi servislar orqali musiqa tinglash va turli mavzulardagi podkastlarni eshitish imkoniyati yaratilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqot. Do‘stlar bilan xabarlashish, memlar almashish va virtual hamjamiyatlarda vaqt o‘tkazish ko‘ngilochar xarakterga ega.

Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR). Foydalanuvchini boshqa muhitga olib kiruvchi yangi texnologiyalar orqali dam olish imkoniyati yaratilgan [9. B. 56–59].

Raqamli media insonlarga ishdan keyin hordiq chiqarish, stressni kamaytirish va vaqtni maroqli o‘tkazish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Umuman olganda, internet OAVning ijtimoiy funksiyalari o‘zaro chambarchas bog‘langan murakkab tizimni tashkil etadi. Ular birgalikda jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ijtimoiy ongni shakllantirish va demokratik jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois raqamli media zamonaviy jamiyatning eng muhim kommunikativ institutlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar konvergensiyasi sharoitida media va axborot savodxonligiga ega bo‘lgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati sifat bosqichiga ko‘tariladi [10. B. 89].

Raqamli media zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanayotgan sohasi bo‘lishiga qaramasdan, uning faoliyati bir qator murakkab muammolar bilan ham bog‘liq. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti ushbu sohaning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini ham belgilab bermoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan Internet OAVning muammolari va istiqbollari o‘zaro dialektik bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Internet OAVning eng dolzarb muammolaridan biri – axborot ishonchliligi va feyk yangiliklar muammosi hisoblanadi. Raqamli muhitda axborotning tez tarqalishi uning sifat nazoratini qiyinlashtiradi. Natijada tekshirilmagan, manipulyativ yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar keng auditoriyaga yetib borishi mumkin. Zero, “internet faoliyati uchun zarur bo‘lgan eng muhim prinsiplardan biri – haqqoniylikdir. Butun dunyoga, butun dunyo voqealari, insoniyat hayoti haqida yangiliklar, informatsiya va boshqa ma’lumotlar yetkazib beruvchi bu ommaviy axborot vositasi faqat haqqoniy, tekshirilgan, to‘g‘ri informatsiyalar, ma’lumotlar yetkazishi shart. Aks holda u o‘z funksiyasini bajara olmay qoladi, inqirozga uchraydi” [1. B. 119].

Ikkinchi muammo – axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligidir. Internet OAVda har soniyada katta hajmdagi ma’lumotlar e’lon qilinadi. Bu esa audi-

toriyaning muhim va ikkinchi darajali axborotni ajratib olish qobiliyatini susaytiradi hamda axborot iste'molida yuzakilikni kuchaytiradi.

Uchinchi muammo – professional jurnalistika standartlarining zaiflashuvi bilan bog'liq. Raqamli platformalarda har qanday foydalanuvchi kontent yarata olishi sababli jurnalistika kasbiy mezonlari ba'zan buziladi. Bu esa tahririy nazoratning pasayishiga va sifatli jurnalistik materiallar ulushining kamayishiga olib keladi.

To'rtinchi muammo – mualliflik huquqi va kontent xavfsizligi masalasidir. Internet muhitida materiallar tezda ko'chirilib, ruxsatsiz foydalanilishi keng tarqalgan. Bu holat jurnalistlar va media tashkilotlarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilishini murakkablashtiradi.

Beshinchi muammo – axborot manipulyatsiyasi va media ta'sir kuchining siyosiylashuvidir. Ba'zi holatlarda raqamli media turli siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bu esa axborotning obyektivligini pasaytiradi va media ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli media rivojlanishining istiqbollari ham juda keng va ko'p qirrali hisoblanadi. Eng muhim yo'nalishlardan biri – sun'iy intellekt texnologiyalarining jurnalistikaga integratsiyasidir. Sun'iy intellekt asosida avtomatik yangilik yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish va auditoriya xulq-atvorini prognoz qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ikkinchi istiqbolli yo'nalish – ma'lumotlar jurnalistikasi rivojidir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida chuqur analitik materiallar tayyorlash internet OAVning sifatini oshiradi va uni yanada ilmiy asoslangan qiladi.

Uchinchi yo'nalish – multimedia va immersiv texnologiyalarning (VR, AR) qo'llanilishi hisoblanadi. Bu texnologiyalar yordamida foydalanuvchi voqealarni nafaqat o'qiydi yoki ko'radi, balki virtual muhitda "ishtirok etishi" mumkin bo'ladi.

To'rtinchi istiqbol – personalizatsiya (individual axborot yetkazish) tizimining rivojlanishidir. Algoritmlar yordamida har bir foydalanuvchiga uning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kontent taqdim etiladi.

Beshinchi istiqbol – global media integratsiyasi va transmedia tizimlarining kengayishidir. Turli platformalarda (sayt, ijtimoiy tarmoq, mobil ilova) birlashtirilgan axborot oqimi yagona media ekotizimni shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli media zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining eng muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. U an'anaviy matbuotning funksional asoslarini saqlagan holda, raqamli texnologiyalar ta'sirida tubdan yangilangan kommunikativ tizimga aylandi. Internet OAVning paydo bo'lishi axborot uzatish jarayonini tezlashtirdi, uning shakl va mazmunini boyitdi hamda auditoriya bilan bevosita interaktiv muloqotni yo'lga qo'ydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli media tezkorlik, interaktivlik, multimediaviylik va gipermatnlilik kabi xususiyatlari bilan an'anaviy matbuotdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu esa uning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirib, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish hamda ma'rifiy jarayonlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, raqamli OAV axborot ishonchliligi, feyk yangiliklar, mualliflik huquqi va professional standartlarning pasayishi kabi qator muammolarga ham duch kelmoqda. Biroq zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, ma'lumotlar jurnalistikasi va multimedia platformalarining rivojlanishi ushbu sohaning istiqbolini yanada kengaytiradi.

Umuman olganda, raqamli media bugungi kunda nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, global kommunikatsiyani ta'minlovchi va demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi muhim media instituti sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning kelajakdagi rivoji texnologik innovatsiyalar va axborot madaniyatining o'sishi bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar:

1. *Худойқулов М.* Журналистика ва публицистика. – Тошкент: Тафаккур, 2010. – 288 б.
2. *Qosimova N.* Internet jurnalistikasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 354 b.
3. *McLuhan M*. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964. – 359 p.
4. *Manovich L.* The Language of New Media. – Cambridge, MA: MIT Press, 2001. – 354 p.
5. *Jenkins H*. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006. – 308 p.
6. *Shepard W. J.* Public Opinion // American Journal of Sociology. – 1909. – Vol. 15. No1. – Pp. 32–60.
7. *Ibragimova Z.M.* Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 168 b.

8. *Gerbner G., Gross, L., Morgan M., & Signorielli N*. Living with Television: The Dynamics of the Cultivation Process. In Perspectives on Media Effects: Lawrence Erlbaum Associates, 1986. – 352 p.

9. *Isaak J., & Hanna M.J.* User data privacy: Facebook, Cambridge Analytica, and privacy protection. Computer, 2018. – Vol. 51(8). – Pp. 56–59.

10. O‘zbekistonda internet jurnalistikasining shakllanishi tarixidan // International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health, 2025. – Pp. 88– 92.

PRESS IN THE INTERNET SYSTEM: MODERN PROCESS AND TRANSFORMATION

Nodira A. Musayeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2026. 3(95). 69-74.

[1]Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan, Tashkent, 100027, str. Center-5, house 88, (Uzbekistan). E-mail: info@jmcu.uz

Key words: online press, digital journalism, multimedia, interactivity, hypertext, blog essay, longread, media transformation.

This article is examined the transformation of print media within the Internet environment and explores how traditional journalism has adapted to digital communication. The study aims to identify the main characteristics of digital transformation, analyze changes in journalistic genres, and assess the evolving social functions of online media.

The research employs theoretical analysis of academic literature, comparative analysis of print and digital media, observation of online news platforms and social networks, and analysis of current media consumption trends. The conceptual framework is based on the works of M. McLuhan, L. Manovich, and H. Jenkins, whose theories explain media convergence and digital communication.

The findings indicate that Internet journalism is distinguished by interactivity, multimedia integration, hypertextuality, and real-time communication. These features have transformed traditional journalistic genres into hybrid formats such as longreads, blog-essays, multimedia reports, and interactive storytelling. The study also demonstrates that online media perform broader social functions by informing the public, influencing public opinion, supporting education, and encouraging civic participation. At the same time, digital journalism faces challenges including misinformation, information overload, copyright violations, and declining professional standards, all of which affect the credibility of online media.

The transformation of print media into the Internet system represents a fundamental shift in journalism rather than merely a technological change. Digital media have become interactive and participatory platforms that play a significant role in public communication and democratic development. Future progress in Internet journalism will depend on technological innovation, responsible media practices, and the improvement of media literacy.

References:

1. Khudoykulov, M. (2010). *Jurnalistika va publitsistika* [Journalism and publicism]. Tashkent: Tafakkur.

2. Kasimova, N. (2019). *Internet jurnalistikasi asoslari* [Fundamentals of Internet Journalism]. Tashkent: Uzbekistan.

3. McLuhan, M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. New York: McGraw-Hill.

4. Manovich, L. (2001). *The Language of New Media*. Cambridge, MA: MIT Press.

5. Jenkins, H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide.* New York: New York University Press.

6. *Shepard, W.J*. (1909). Public Opinion. *American Journal of Sociology.* Vol. 15. No 1. Pp. 32-60.

7. Ibragimova, Z.M. (2019). *Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati* [Civil society and public oversight]. Tashkent: Akademnashr.

8. Gerbner, G., Gross, L., Morgan, M., & Signorielli, N.(1986). Living with Television: The Dynamics of the Cultivation Process. In Perspectives on Media Effects.: Lawrence Erlbaum Associates.

9. Isaak, J., & Hanna, M.J. (2018). User data privacy: Facebook, Cambridge Analytica, and privacy protection. Computer. Vol. 51(8). Pp. 56-59.

10. (2025) O‘zbekistonda internet jurnalistikasining shakllanishi tarixidan [From the history of the formation of internet journalism in Uzbekistan]. International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health. Pp. 88-92.

Muallif haqida ma’lumot:

MUSAYEVA Nodira Azizovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti katta o‘qituvchisi. E-mail: an_nodira@mail.ru